



ALFRAGANUS UNIVERSITY

**UCHINCHI RENESSANS -
TA'LIM VA TARAQQIYOT:**

★ O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK ★

**mavzusidagi
I Xalqaro talabalar
Konferensiyasi**

2023-YIL 17-NOYABR

**UCHINCHI RENESSANS – TA’LIM VA TARAQQIYOT:
O’TMISH, BUGUN VA KELAJAK**

mavzusidagi
I Xalqaro talabalar
Konferensiyasi



Alfraganus universiteti



**Muxtor Auevov nomidagi
Janubiy Qozog'iston universiteti**



**B.Gafurov nomidagi Xo'jand davlat
universiteti**



Chimkent universiteti



**Xo'jand shahridagi Tojikiston aniq fanlar
va texnologiyalar instituti**

Mas'ul muharrir:

Muhammadismoil Maxmudov

Alfaraganus universiteti rektori

Konferensiya tashkilotchisi:

Xurshidbek Qurbonov

Alfaraganus universiteti iqtidorli talabalar bilan ishlash b'limi
BOШЛИҒИ

Taqrizchilar:

Nozim Muminov

Alfaraganus universiteti prorektori

Mavluda Raximshikova

Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti

Ravshan Usanov

B.Gafurov nomidagi Xo'jand Davlat universiteti

Mo'minjon Xo'jayev

“Alfaraganus” Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari

Adhamjon Mirzachaev

“Alfaraganus” Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi xodimi

Anjuman tezislarining ilmiy saviyasiga ilmiy maslahatchi va muallif
javobgar hisoblanadi.

**Alfaraganus university Ilmiy-texnikaviy kengashining 2023-yil
6-noyabrdagi 1-sonli majlisida nasrga tavsiya etilgan.**

- Жасөспірімдердің суициді туралы хабардар болыңыз. Ресурстарға қоғамдық кітапхана, жергілікті қолдау тобы және Интернет кіреді.
- Депрессия туралы ескерту белгілерін біліңіз:
 1. Қайғы, үмітсіздік немесе жалғыздық сезімдері
 2. Мектептегі үлгерімнің төмендеуі
 3. Әлеуметтік және спорттық іс-шараларға қызығушылықты жоғалту
 4. Тым аз немесе көп ұйықтау
 5. Салмақтың немесе тәбеттің өзгеруі
 6. Нерв, козу немесе тітіркену
- Жасөспірімдер досында ескерту белгілерін байқаса, өз-өзіне қол жұмсаудың алдын-алу үшін келесі қадамдарды жасай алады:
- Досының мінез-құлқына және өз-өзіне қол жұмсау туралы сөйлесуге мән беріңіз.

Әдебиеттер тізімі:

1. Қазақстан Республикасының Қылмыстық кодексі ҚР 2014 жылғы 3 шілде
2. Мектептегі психология. №12, 2015.
3. Елшібаева К.Ф. Жас өспірімдер арасындағы суицидтің алдын алу. Арман ПВ баспасы, Алматы, 2012.
4. Напрасная смерть: причина и профилактика самоубийств. Под.редакцией Д.Вассерман. Пер. с.англ. - М.: Смысл, 2015
5. Әтемова Қ.Т. Әлеуметтік педагогика. -Алматы.: Рауан, 2012. -308б.
6. Беркімбаева Ш.К., Мардахаев Л.В. Әлеуметтік педагогика. Алматы: Мектеп, 2012 -228б.
7. М.А.Гулина,Ю.П.Зинченко. Консультативная психология.Учебник для вузов -2015.

Abduraimova Durdona Muhammadi qizi BuxDU Tarix va yuridik fakulteti,
Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi Ilmiy maslahatchi: Turdiyev Bexruz
Sobirovich, BuxDU Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasida
dotsenti

YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TA'LIM TARAQQIYOTI VA UNING ISTIQBOLLARI

Аннотация: Mazkur maqolada O'zbekistonda ta'lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar masalasi o'rganilib, mamlakatimizdagi zamonaviy ta'lim, uning taraqqiyoti, rivojlanish bosqichlari, istiqboli va bundan kutilayotgan natijalar tahlil etilgan.

Калит so'zlar: ta'lim, tarbiya, texnologiya, investitsiya, fuqarolik pozitsiyasi, universitet, doktorantura, Uchinchi Renessans.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida zamonaviy ta‘lim tizimini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlovchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mamlakatimizda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, bunda jahondagi rivojlangan davlatlarning ilg‘or ta‘lim texnologiyalaridan foydalangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Buning natijasida esa, bugungi kunda yoshlarimizning ilm-fan sohasida, sport va boshqa ko‘plab faoliyat sohaslarida erishilayotgan yuqori natija va yutuqlari ushbu hayotbaxsh islohotlarning mahsulidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘birlari bilan aytganda, “birinchi navbatda, e‘tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta‘limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz. “Najot – ta‘limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlariga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”. Darhaqiqat mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan ta‘lim tizimiga berilayotgan e‘tibor namunasini yurtimizda 2023-yilga “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb nomlanishi, shuningdek, ta‘lim va tarbiya sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu strategik maqsadlar negizida avvalo, yoshlarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, Vatanga yuksak sadoqat bilan xizmat qilish, kelajakka ishonch va unga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish singari ezgu maqsadlar mujassam ekanligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Bu borada esa, O‘zbekistonda oliy ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirib, ushbu sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish nazarda tutilmoqda. Buning uchun esa, respublikamizdagi bir qator oliy ta‘lim muassasalarining faoliyatiga erkinlik berish, ularning ko‘rsatkichlarini ommalashtirish, moliyaviy mustaqillik berish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq:

birinchidan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

ikkinchidan, Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish, shuningdek,

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

uchinchidan, Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

to'rtinchidan, Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish va hokazo.

Shuningdek, ushbu farmonga muvofiq mamlakatimizda Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha esa quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi maqsad qilingan:

birinchidan, Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta'limda raqobat muhitini yaratish;

ikkinchidan, Xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlovchi, yetakchi ta'lim va ilm-fan markazi - Prezident universitetini tashkil etish, shuningdek, "El-yurt umidi" jamg'armasi ko'magida professor-o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash, magistratura va doktoranturada o'qitish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirib borish;

uchinchidan, maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni sarhisob qilib oldimizga qo'yilgan vazifalarni sanar ekanmiz, quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish. Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va hz.

Yurtimizda boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilish va maktab ta'lim sifatini ko'tarish maqsadida quyidagi maqsad va vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

➤ yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ o'quv o'rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish;

➤ nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan 2022-yilda 3 foizga oshirish;

➤ yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi masalalar tilga olinadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan hayotbaxsh islohotlar zamirida avvalo, xalqimizning ertangi kuni va buyuk kelajagi bunyodkorlari hisoblanmish yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol toptirish masalasi turibdi. Zotan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tkanlaridek, "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda". Shunday ekan, mamlakatimizda ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish texnologiya va tarbiya usullarini joriy etish ustuvor vazifaga aylanishi lozim. Zero, ta'lim sohasidagi yangilanishlar orqali biz yurtimizda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib olishimiz va bunga munosib hissamizni qo'shishimiz shart.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni// <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/6637>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi// <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi// <https://president.uz/oz/lists/view/6677>

Jo'rayev Shuhrat Raxmat o'g'li. YOSHLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLIYATI ILMIY MUAMMO SIFATIDA	114
Mahramova Zuhra Yunus qizi. NIGILIZMNI IJTIMOIIY HODISA SIFATIDA O'RGANISHNING METODOLOGIK TAMOIYILLARI	119
Nabixanova Jamila Avazxonovna. KASBGA YO'NALGANLIK VA KASB TANLASH ISHLARINI TASHKIL QILISHDA MILLIIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH	125
Normurodova Zamira Baxriddin qizi. IKKI VA UNDA N ORTIQ TILNI BILUVCHI O'SMIRLARDA SO'Z-MANTIQ TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHALTARI (MADANIY VOSITALAR YORDAMIDA)	130
Obbosxonov Alimardon Akmalxon o'g'li. MA'NAVIY TARBIYA – TARAQQIIYOT ASOSI	139
Usanova Gulruxsor Ravshanovna. BOBOJON G'AFUROV ASARLARIDA MARKAZIIY OSIYO FALSAFASI TARIXI IN'IKOSI	144
Каміл Аружан. БАСТАУЫШ МЕКТЕП ОҚУШЫЛАРЫНЫҢ ОҚУ-ІС ӘРЕКЕТ МОТИВТЕРІНІҢ ҚАЛЫПТАСУ МАҢЫЗДЫЛЫҒЫ	148
O'runboyev Qobiljon Abdulxayrovich. IBN SINO FALSAFIY TA'LIMOTINING SHARQ VA EVROPA MUTAFAKKIRLARIGA TA'SIRI	152
Usanzoda Firdavs. ZO'RAVONSIZLIK FALSAFASI JAHON MADANIYATINING ASOSI SIFATIDA	157
Усанов Бахтиёр Равшанович. ИЗУЧЕНИЕ НАСЛЕДИЕ ФАРАБИ В МИРЕ	161
Хаджибаев Мухаммаджон Абдунабиевич. ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ОСНОВАТЕЛЯ КУБРАВИЯ	166
Әжіхан Арайлым Қамалбек қызы. ЖАСӨСПІРІМДЕР АРАСЫНДАҒЫ СУИЦИДТИК МІНЕЗДІҢ АЛДЫН АЛУДАҒЫ МҰҒАЛІМНІҢ РӨЛІ	171
Abduraimova Durdona Muhammadi qizi. YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIIY TA'LIM TARAQQIIYOTI VA UNING ISTIQBOLLARI	178